



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta’lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улутбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отақулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга таҳлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Xayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тadbirkorlik субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155
21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne‘matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Кодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budjet mablag‘larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O‘ralboy Miraqul o‘g‘li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193





27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-dagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317
44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida mevachilik tarmog'ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Salamat Muratbaevich	Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo'llari	335
47.	Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun'iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Eminjon Gapardjonovich	Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o'g'li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko'rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo'llari	371





53.	Sultanova Nigora Xikmatxo'ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Munisa, Alimov Ulug'bek Baxodirovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo'llari	395
57.	Xamdamov Shavkat Komilovich	Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G'anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Gulrux Muzafarovna	Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo'yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G'ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi o'rni: Janubiy Koreya va O'zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Davron Akromovich	Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari	451
63.	Тожибоева Дилором	Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тутган ўрни	459
64.	Azimov Islom Xolmurodovich	Xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning xorijiy tajribalari va O'zbekistonga qo'llash imkoniyatlari	471
65.	Xadjibekova Aziza Akbarovna	Tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy funktsiya va prinsiplari	477
66.	Насирова Хатидже Камолжоновна	Методологические основы интеграции ESG-принципов в систему управления инвестиционной привлекательностью промышленных предприятий Республики Узбекистан	484
67.	Azimova Malika Rustamovna	NPVfr modifikatsiyalangan ko'rsatkich asosida O'zbekiston xizmatlar sohasidagi franchayzing loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash	494
68.	Razzakov Jasur Xamraboyevich	Korporativ biznes sektorini moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili	501
69.	Sulaymanov Akrom Isamiddinovich	O'zbekiston bank tizimida uzoq muddatli moliyalashtirishning tarkibiy nomutanosibli va ssenariyli erta ogohlantirish chegaralari	507
70.	Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Xasanova Dilnoza Jamshid qizi	Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanishning imkoniyatlari	519
71.	Amonova Nazokat Utkurovna	Improving the mechanisms of financing investment activities in the context of economic modernization	526
72.	Xonova Nodira Fazliddinovna	Kraudfanding platformalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'llari	534
73.	Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli	544
74.	Umarov Abduvahob Tursunovich	Mintaqalarni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari	550
75.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Xorijiy davlatlar qarzini boshqarishga doir tajribalari va milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	557
76.	Bozorov Xayrulla Xaitboyevich	Farg'ona viloyatida biznesni rivojlantirishda jalb qilinayotgan investitsiyalarning ahamiyati	565





FARG‘ONA VILOYATIDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA JALB QILINAYOTGAN INVESTITSİYALARNING AHAMIYATI

Bozorov Xayrulla Xaitboyevich

*Farg‘ona davlat universiteti
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg‘ona viloyatida biznesni rivojlantirishda investitsiyalarning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Investitsiyalar orqali yangi korxonalar tashkil etilishi, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiya qilinishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi hamda hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligi oshirilishi yoritilgan. Shuningdek, 2021–2026-yillarda viloyatda faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni bo‘yicha statistik ma‘lumotlar asosida biznes muhitining rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: investitsiya, biznes, tadbirkorlik, investitsion jozibadorlik, kichik biznes, iqtisodiy rivojlanish, korxona, innovatsiya, Farg‘ona viloyati.

THE IMPORTANCE OF ATTRACTED INVESTMENTS IN THE DEVELOPMENT OF BUSINESS IN THE FERGANA REGION

Bozorov Khayrulla Khaitbaevich

*Independent Researcher,
Fergana State University*

Abstract. This article analyzes the role and importance of investments in development of business in the Fergana region. It highlights the establishment of new enterprises, modernization of existing production capacities, creation of new jobs, and the enhancement of the regional economy's competitiveness through investments. Furthermore, the development trends of the business environment are analyzed based on statistical data regarding the number of enterprises and organizations operating in the region during the period of 2021–2026.

Keywords: investment, business, entrepreneurship, investment attractiveness, small business, economic development, enterprise, innovation, Fergana region.

ЗНАЧЕНИЕ ПРИВЛЕКАЕМЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ БИЗНЕСА В ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ

Бозоров Хайрулла Хайтбоевич

*Самостоятельный соискатель,
Ферганский государственный университет*

Аннотация. В данной статье анализируются роль и значение инвестиций в развитии бизнеса в Ферганской области. Освещены вопросы создания новых предприятий, модернизации существующих производственных мощностей, создания новых рабочих мест и повышения конкурентоспособности экономики региона за счет инвестиций. Кроме того, на основе статистических данных о количестве действующих в регионе предприятий и организаций за 2021–2026 годы проанализированы тенденции развития бизнес-среды.

Ключевые слова: инвестиции, бизнес, предпринимательство, инвестиционная привлекательность, малый бизнес, экономическое развитие, предприятие, инновация, Ферганская область.

Kirish.

Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan iqtisodiy sharoitda investitsiyalar iqtisodiy o‘rinishning eng muhim omillaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Investitsiyalar mamlakat





va hududlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli investitsion faoliyatni rag'batlantirish va investitsiya muhitini yaxshilash bugungi kunda davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi hamda ishlab chiqarish omillaridan unumli foydalanishga xizmat qiladi. Xususan, investitsiyalar yordamida yangi korxonalar tashkil etiladi, mavjud ishlab chiqarish quvvatlari modernizatsiya qilinadi, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar amaliyotga joriy etiladi. Natijada mahsulot va xizmatlar sifati oshadi, ishlab chiqarish tannarxi kamayadi va korxonalarning raqobatbardoshligi kuchayadi. Bu esa iqtisodiyotning umumiy samaradorligi va eksport salohiyatining ortishiga olib keladi.

Farg'ona viloyati O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyat qulay geografik joylashuvi, zich aholi soni, rivojlangan sanoat infratuzilmasi va mehnat resurslarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Hududda neft-kimyo, to'qimachilik, qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash hamda xizmat ko'rsatish sohalari iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari sifatida shakllangan. Mazkur tarmoqlarni yanada rivojlantirish va iqtisodiy salohiyatni oshirishda investitsiyalarning o'rni beqiyosdir.

So'nggi yillarda Farg'ona viloyatida investitsion muhitni yaxshilash, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada viloyat iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalar hajmi yil sayin ortib bormoqda. Jalb etilgan investitsiyalar hisobiga yangi sanoat korxonalari ishga tushirilmoqda, ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirilmoqda va yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Bu esa aholining daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Hudud iqtisodiyotining rivojlanish darajasini baholashda korxona va tashkilotlar sonining o'zgarishi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Korxonalar sonining ortishi iqtisodiy faollikning kuchayishi, yangi biznes tashabbuslarining paydo bo'lishi va investitsion muhitning yaxshilanishidan dalolat bersa, ularning kamayishi iqtisodiy transformatsiyalar, tarkibiy o'zgarishlar hamda bozor talablariga moslashish jarayonlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Farg'ona viloyatida biznesni rivojlantirishda jalb qilinayotgan investitsiyalarning ahamiyati bo'yicha dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni tahlil qilish, mavzu yuzasidan barcha ma'lumotlarni to'plash, solishtirish, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Farg'ona viloyatida 2021–2026-yillar davomida korxona va tashkilotlar sonining o'zgarishi hudud iqtisodiyotida muayyan tarkibiy o'zgarishlar yuz berayotganligini ko'rsatadi. Tahlil qilinayotgan davr boshida, ya'ni 2021-yilda viloyatda jami 43 168 ta korxona va tashkilot faoliyat yuritgan bo'lsa, shundan 37 183 tasi tadbirkorlik subyektlari va 36 927 tasi kichik biznes subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkichlar hudud iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yetakchi o'rin egallayotganligini ko'rsatadi.

2022-yilda korxonalar sonining sezilarli darajada o'sishi kuzatilib, jami korxona va tashkilotlar soni 47 415 taga yetgan. Bu 2021-yilga nisbatan 4 247 taga yoki 9,8 foizga ko'pdir. Tadbirkorlik subyektlari soni 41 322 taga, kichik biznes subyektlari soni esa 41 074 taga yetib, tahlil qilinayotgan davrdagi eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. Ushbu holat mamlakatda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar, soliq imtiyozlari, kreditlash tizimining takomillashuvi hamda investitsiyalar oqimining faollashuvi bilan izohlanadi.

Biroq 2023–2025-yillar davomida korxonalar sonining bosqichma-bosqich kamayishi





kuzatilgan. Jumladan, 2023-yilda jami korxonalar soni 42 309 taga, 2024-yilda 39 049 taga, 2025-yilda esa 35 717 taga qisqargan. Mazkur davrda tadbirkorlik subyektlari soni ham mos ravishda 36 368 tadan 29 479 tagacha kamaygan. Bu jarayon bir qarashda iqtisodiy faollikning pasayishini anglatgandek ko‘rinsa-da, aslida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va samaradorlikni oshirish siyosati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda korxonalar sonining qisqarishi har doim ham salbiy holat sifatida baholanmaydi. Chunki ayrim hollarda iqtisodiy samaradorligi past, rentabelligi yetarli bo‘lmagan yoki faoliyat yuritmayotgan korxonalar tugatiladi, yirikroq va samarali subyektlar bilan birlashtiriladi. Natijada iqtisodiyotda sifat jihatidan yangi bosqich shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, Farg‘ona viloyatida 2023–2025-yillarda kuzatilgan qisqarish jarayoni iqtisodiyotning tarkibiy optimallasuvi bilan bog‘liq deb baholanishi mumkin.

2026-yilda esa ijobiy tendensiya qayd etilib, jami korxona va tashkilotlar soni 38 600 taga, tadbirkorlik subyektlari soni 32 266 taga va kichik biznes subyektlari soni 31 982 taga yetgan. Bu holat viloyatda biznes muhitining yaxshilanib borayotganligini, yangi investitsiya loyihalari amalga oshirilayotganligini hamda tadbirkorlik faoliyatining tiklanayotganligini ko‘rsatadi.

Investitsiyalar iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish, infratuzilmani rivojlantirish va aholi bandligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli hudud iqtisodiyotining rivojlanish darajasini baholashda investitsiyalar hajmining o‘zgarishi muhim ahamiyatga ega.

2019–2025-yillar davomida Farg‘ona viloyatida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon qilgan (1-jadval). Agar 2019-yilda investitsiyalar hajmi 8,7 trillion so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 11,0 trillion so‘mga yetib, 26,4 foizlik o‘shish qayd etilgan. 2021-yilda investitsiyalar hajmi 12,6 trillion so‘mni tashkil etib, avvalgi yilga nisbatan 14,5 foizga oshgan.

1-jadval
Farg‘ona viloyatiga jalb qilingan investitsiyalar hajmi dinamikasi[3]

Yil	Investitsiyalar hajmi (trln so‘m)	O‘shish sur‘ati (%)
2019	8,7	-
2020	11,0	126,4
2021	12,6	114,5
2022	15,4	122,2
2023	20,0	129,9
2024	22,4	112,0
2025*	25,7	114,7

2022-yilda investitsiyalar hajmi 15,4 trillion so‘mga yetgan bo‘lib, bu 2021-yilga nisbatan 22,2 foizlik o‘shishni anglatadi. Mazkur davrda amalga oshirilgan investitsiya loyihalari natijasida sanoat, qurilish, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida yangi quvvatlar ishga tushirilgan.

Eng yuqori o‘shish sur‘atlaridan biri 2023-yilda kuzatilib, investitsiyalar hajmi 20,0 trillion so‘mga yetgan. O‘shish sur‘ati 129,9 foizni tashkil etganligi hududda investitsion faoliyatning sezilarli darajada faollashganidan dalolat beradi. Aynan shu yilda investitsiyalar hajmi ilk bor 20 trillion so‘mlik chegaradan oshgan.

2024-yilda investitsiyalar hajmi 22,4 trillion so‘mga yetgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich viloyatda yirik sanoat korxonalari, ishlab chiqarish majmualari va infratuzilma obyektlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiya loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilganligini ko‘rsatadi.

2025-yilning yanvar–sentabr oylarida esa iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun 25,7 trillion so‘m investitsiyalar o‘zlashtirilgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 153,8 foizni tashkil etgan bo‘lib, investitsion faollikning yanada kuchayganligini anglatadi. Umuman olganda, 2019–2025-yillar davomida investitsiyalar hajmi 8,7 trillion so‘mdan 25,7 trillion so‘mga yetib, qariyb 3 baravarga oshgan.

Iqtisodiy nazariyaga ko‘ra, investitsiyalar hajmining ortishi yangi korxonalar tashkil





etilishi, mavjud korxonalar faoliyatining kengayishi hamda yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga xizmat qiladi. Shu sababli investitsiyalar va tadbirkorlik subyektlari soni o‘rtasida bevosita bog‘liqlik mavjud (2-jadval).

2-jadval
Farg‘ona viloyatida tadbirkorlik subyektlari soni[2]

Yil	Jami korxona va tashkilotlar	Tadbirkorlik subyektlari	Kichik biznes subyektlari
2021	43 168	37 183	36 927
2022	47 415	41 322	41 074
2023	42 309	36 368	36 143
2024	39 049	32 853	32 644
2025	35 717	29 479	29 193
2026	38 600	32 266	31 982

Farg‘ona viloyati misolida tahlil natijalari investitsiyalar hajmi yil sayin ortib borayotgan bo‘lsa-da, korxonalar soni ayrim yillarda kamayganligini ko‘rsatadi. Bu holat investitsiyalar faqat korxonalar sonining ko‘payishiga emas, balki mavjud korxonalarning texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilinishiga ham yo‘naltirilayotganligi bilan izohlanadi. Ya‘ni investitsiyalar natijasida yangi korxonalar tashkil etilishi bilan bir qatorda mavjud korxonalar samaradorligi ham oshirilmoqda.

Shuningdek, iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish jarayonida ayrim kichik va rentabelligi past korxonalar faoliyatini tugatishi yoki yirik korxonalar tarkibiga qo‘shilishi mumkin. Natijada korxonalar soni qisqargan bo‘lsa-da, ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi va iqtisodiy samaradorlik ortadi. Bu esa iqtisodiy rivojlanishning intensiv modeliga o‘tish belgilaridan biri hisoblanadi.

2026-yilda korxonalar sonining yana o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lishi investitsiyalar natijasida yaratilgan qulay biznes muhitining amaliy samarasini ko‘rsatadi. Bu holat investitsiyalar va tadbirkorlik rivojlanishi o‘rtasida uzoq muddatli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi.

Xulosa.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar Farg‘ona viloyatida biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda viloyat iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar hajmining izchil ortib borishi yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish hamda aholi bandligini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari 2019–2025-yillar davomida asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi qariyb uch barobarga oshganligini ko‘rsatdi. Mazkur holat Farg‘ona viloyatining investitsion jozibadorligi ortib borayotganligini hamda investorlar uchun qulay biznes muhiti shakllanayotganligini tasdiqlaydi. Investitsiyalar oqimining ko‘payishi hududda iqtisodiy faollikni rag‘batlantirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Shuningdek, korxona va tashkilotlar soni dinamikasining tahlili ayrim yillarda tadbirkorlik subyektlari sonining qisqarishi kuzatilganligini ko‘rsatdi. Biroq bu jarayon iqtisodiy faollikning pasayishi emas, balki iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi, biznes subyektlarini optimallashtirish va samaradorligi past korxonalarni qayta tashkil etish bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Shu sababli investitsiyalar samarasi faqat korxonalar sonining o‘shishi bilan emas, balki ularning iqtisodiy samaradorligi, ishlab chiqarish hajmi va raqobatbardoshligining ortishi orqali ham namoyon bo‘ladi.

2026-yilda korxonalar va tadbirkorlik subyektlari sonining yana o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lishi viloyatda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatining ijobiy natijalarini ko‘rsatadi. Bu esa investitsiyalar va biznes rivojlanishi o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligini hamda





investitsiyalar hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim strategik resurs ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona viloyatida investitsiyalarni jalb qilish, investitsion muhitni yanada takomillashtirish, xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish hamda investitsion loyihalarni samarali amalga oshirish biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi. Mazkur jarayonlar hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, eksport hajmini ko‘paytirish va aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bois investitsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va uning samaradorligini oshirish Farg‘ona viloyatining uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyasining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fitch Ratings. Fergana Region Long-Term IDR Assigned ‘BB-’ with Outlook Stable. Official Press Release, May 7, 2026. <https://www.fitchratings.com/entity/fergana-region-97874288>
2. Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi, 2026-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari.

